

QORAQALPOQ SUR QORAKO'L QO'YLARI HAYOTCHANLIGINING BIOLOGIK FAOL MODDALAR VA TIRIK VAZNGA BOG'LIQLIGI VA GUL TIPLARI

D.Yu.Abduzoirova

mustaqil izlanuvchi (DSc), q.x.f.f.d (PhD), k.i.x.

Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

e-mail: uzkarakul@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17556155>

Annotatsiya. Maqolada qoraqalpoq sur qorako'l qo'ylari hayotchanligining biologik faol moddalar bilan bog'liqligi keltirilgan.

Kalit so'zlar. qorako'l qo'ylari, hayotchanlik, tirik vazn, reproduktiv imkoniyat, albumin, globulin, AST.

Abstract. The article presents the relationship between the vitality of Karakalpak sur karakul sheep and biologically active substances.

Key words: karakul sheeps, vitality, live weight, reproductive, albumin, globulin, AST.

Kirish. Mamlakatimiz qorako'lchiligi rivojlanishining hozirgi bosqichi qo'ylarning biologik salohiyatidan foydalanib, ularning mahsuldorlik darajasini oshirish bilan tavsiflanib, u o'z navbatida qo'ylarning reproduktiv imkoniyatidan ratsional foydalanish, qo'ylar bosh sonini jadal ko'paytirish va mahsulot ishlab chiqarishning sifati va miqdorini oshirishni talab etadi. Shu tufayli qo'ylarning reproduktiv imkoniyatidan ratsional foydalanish tarmoqni jadal rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Irsiylik koeffitsientining minimal ko'rsatkichi va uning ko'payish tomonga og'ishi serpushtlikning paratipik omillar hamda olib borilayotgan naslchilik ishining tavsifi bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Qorako'lchilikda ham qo'ylarning bosh sonini ko'paytirishning eng muhim omillaridan biri qo'zilarining tug'ilganidan to onalaridan ajratgungacha bo'lgan davrdagi saqlanish darajasi (hayotchanligi) bilan bog'liq bo'lib, bu davrdagi qo'zilar chiqimiga onalarining kam sutliligi, yosh qo'zilarni saqlash va parvarishlash texnologiyasiga rioya qilinmaslik, noqulay iqlim hamda yaylov sharoiti va boshqa omillar sabab bo'ladi.

Tadqiqot maqsadi. Tadqiqotning maqsadi qorako'l qo'ylar reproduktiv imkoniyatini oshirishni hamda har xil rangbaranglikdagi sur qorako'l qo'ylar hayotchanligining ularning qoni tarkibidagi biologik ko'rsatkichlari bilan bog'liqligini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot materiali va metodi. Tajriba Navoiy viloyati, Nurota tumani "Istiqlol qorako'l naslchilik" xo'jaligida urchitilayotgan sur rangli shamchiroq, po'lati, o'rikgul rangbaranglikdagi va qora rangli qorako'l qo'ylarida o'tkazildi. Har xil rangbaranglikdagi qorako'l qo'ylariga biologik baho berish va qon tarkibidagi biologik faol moddalar, fermentlar umumiy qabul qilingan usullarda aniqlandi. Olingan natijalar N.A. Ploxinskiy uslubi bo'yicha biometrik tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari. Organizmda qonning muhim ahamiyati, hayvonlar qoni tarkibidagi oqsillar konsentratsiyasini o'rganish zarur. Oqsil to'qima va organlarda muhim qurilish materiali bo'lib, organizmda immunobiologik, katalizatorlik, transportlik, regulyatorlik vazifalari qon orqali amalga oshiriladi.

1-jadval

Tajribadagi qo'ylar qonining biologik faol moddalar bo'yicha nisbiy ko'rsatkichlari

Biologik ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	n	Tuqqan qo'ylar	Qisir qo'ylar
Umumiy oqsil	g/l	10	64,2±2,3	71,5±2,6
Albumin	g/l	10	37,8±1,3	40,5±2,0
Globulin	g/l	10	36,4±0,9	37,1±1,1
AST	ed/l	10	43,6±13,4	43,4±14,7

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, guruhlararo qondagi biokimyoviy ko'rsatkichlarning o'zaro farq borligi kuzatildi. Oqsillar va albuminlar miqdori bo'yicha tuqqan qorako'l qo'ylariga nisbatan qisir qorako'l qo'ylarida ko'proq ekanligi kuzatildi. Globulin, aspartat-aminotransferaza miqdorlari bo'yicha deyarli o'zgarishlar yo'qligi aniqlandi.

Hayvonlarning o'sish va rivojlanishida muhim omil biokimyoviy jarayonlar intensivligi hisoblanadi, barcha o'suvchi organizm to'qima va organlarida kerakli vazifalarni bajaradi. O'sish jarayonlarida alohida yoshga oid davrlarda moddalar almashinuvi har xil jadallikda kechadi. Qonda fermentlarning yoshiga qarab o'zgaruvchanligini o'rganish natijalari hayvonlarning yoshi, kelib chiqishiga bog'liq.

Qorako'l qo'zilarining tirik vazni ularning hayotchanligi, moslashuvchanligi va mahsuldorligini belgilovchi muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Qorako'l qo'zilarining tug'ilgan vaqtdagi tirik vazni ularning yashovchanligini belgilash bilan bir vaqtda qorako'l terilarining tovarlilik xususiyatlarini belgilaydi. Har xil rangbaranglikdagi qoraqalpoq sur qorako'l qo'zilarining tirik vazn o'sish ritmi 2-jadvalda mujassamlashtirilgan.

Olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki tajribadagi qora rangli qo'zilarining tug'ilgan davridagi tirik vazni shamchiroq, po'lati va o'rikgul rangbaranglikdagi tengqurlariga nisbatan mos ravishda 0,2; 0,4 va 0,6 kg, 21 kunlik yoshida 0,3; 0,4 va 0,7 kg, 4-4,5 oylik yoshida 1,1; 1,3 va 1,6 kg yuqori bo'lishi aniqlandi.

2-jadval

Qoraqalpoq sur qo'ylaridan olingan avlodlarning turli yosh davrlarida tirik vazn dinamikasi, kg.

Qo'zilarining rang va rangbarangligi	n	O'sish davrlari					
		Tug'ilganda		21 kunlik yoshida		4-4,5 oylikda (onalaridan ajratishda)	
		M±m	C _v	M±m	C _v	M±m	C _v
Shamchiroq	19	4,3±0,06	8,7	8,2±0,04	8,5	25,4±0,06	4,8
Po'lati	24	3,9±0,7	7,5	7,8±0,03	7,6	25,2±0,04	5,5
O'rikgul	25	4,1±0,3	9,2	8,1±0,04	7,8	24,9±0,14	4,3
Qora	20	4,5±0,2	9,6	8,5±0,06	7,6	26,5±0,14	5,7

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, qo'ylar qoni tarkibidagi biologik faol moddalarning miqdori ko'pligi hamda qorako'l qo'zilarining tug'ilgan paytdagi tirik vazni qancha katta bo'lsa qo'zilarni hayotchanligi yuqori bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aripov U.X. Nauchnoe obosnovanie ispytaniya tipov i povыsheniya effektivnosti seleksii karakulskix oves. Avtoref. Diss. dokt. s/x. nauk. Dubrovıy, Moskovskoy oblasti – 1990 g. s. 33.
2. Aliev D.D. Surxondaryo sur qorako'l qo'ylari mahsuldorligini oshirishning fiziologik jihatlari. Avtoref. Diss. biol. fanlari dokt. Toshkent 2021. 6-bet.
3. Grishaeva I.N. Funktsionalnaya aktivnost щitovidnoy i polovыx jelez u koz gornoaltayskoy puxovoy porody v techenie vosproizvoditelnogo sikla. Avtoref. Diss. kand. biol. nauk. Moskva. 2006. s. 22.
4. Parmanova D.M. Qorako'lchilikda naslli qo'zilar olish va ularni parvarishlash xususiyatlari. Dissertatsiya. Samarqand-2020 yil. 87-95 betlar.
5. Ploxinskiy N.A. Rukovodstvo po biometrii dlya zootexnikov. Moskva. 1969.